

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2025- yil yanvar*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da




2025- yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 959 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 135 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 6 824 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (2025-yil yanvar, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar)



2025- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **106,8 %** ni tashkil qildi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 232,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 106,8 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 228,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 96,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 004,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 176,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 117,5 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	3 232,6	106,8
shaharlar		
Farg'ona	352,9	108,9
Qo'qon	241,8	108,1
Quvasoy	51,2	105,4
Marg'ilon	218,7	108,0
tumanlar		
Oltiariq	90,0	106,4
Qo'shtepa	36,2	105,5
Bag'dod	56,8	108,9
Buvayda	119,3	105,3
Beshariq	67,5	104,4
Quva	93,6	105,6
Uchko'prik	265,0	105,2
Rishton	69,4	106,1
So'x	73,1	104,0
Toshloq	56,5	104,3
O'zbekiston	43,6	105,5
Farg'ona	69,3	106,6
Dang'ara	87,5	105,2
Furqat	16,4	104,8
Yozyovon	33,7	105,7

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Farg'ona sh (108,9 %), Bag'dod t (108,9 %) va Qo'qon (108,1%) shaharida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 15,8 % bilan 352,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 0,7 % bilan 16,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Hajmi, mlrd so'm


Farg'ona sh.	352,9
Uchko'priq t	265,0
Qoq'on sh	241,8
Marg'ilon sh	218,7
Buvayda	119,3
Quva	93,6
Oltiariq	90,0
Dang'ara	87,5
So'x	73,1
Rishton	69,4
Farg'ona	69,3
Beshariq	67,5
Bag'dod	56,8
Toshloq	56,5
Quvasoy sh	51,2
O'zbekiston	43,6
Qo'shtepa	36,2
Yozyovon	33,7
Furqat	16,4

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2025-yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 004,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 8,1% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,8 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 3,3 % ga kamaydi va 228,6 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,2 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x (99,3 %) Farg'ona (99,2 %), Quvasoy (98,9 %) va Buvayda (98,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik t (30,5 %), Qo'qon (18,5 %), va Farg'ona (6,2 %) shaharida kuzatildi.



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*


Oltiariq	390,2
Qo'shtepa	171,9
Bag'dod	241,2
Buvayda	477,1
Beshariq	275,3
Quva	336,5
Uchko'prik	1 085,3
Rishton	317,0
So'x	860,5
Toshloq	257,0
O'zbekiston	182,7
Farg'ona	309,6
Dang'ara	488,4
Furqat	128,1
Yozyovon	278,6

Farg'ona sh	1 085,5
Qo'qon sh	776,7
Quvasoy sh.	501,4
Marg'ilon sh	855,5

2025-yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

544,1 ming so'mni (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 104,7 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona sh (1 085,5 ming so'm), Uchko'prik t (1 085,3 ming so'm) va Marg'ilon (855,5 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2025- yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	176,9	117,5
shaharlar		
Farg'ona	13,7	69,6
Qo'qon	11,3	58,8
Quvasoy	4,1	114,8
Marg'ilon	17,4	141,1
tumanlar		
Oltiariq	6,5	131,3
Qo'shtepa	4,7	109,5
Bag'dod	20,3	3,3 m
Buvayda	14,8	88,9
Beshariq	14,8	70,4
Quva	10,5	79,7
Uchko'prik	5,5	168,8
Rishton	13,6	144,3
So'x	5,8	175,6
Toshloq	5,3	182,2
O'zbekiston	8,0	2,7 m
Farg'ona	6,9	4,3 m
Dang'ara	3,0	214,0
Furqat	1,4	1 4,9 m
Yozyovon	9,4	199,8


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2025- yil yanvar)



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 176,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 117,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik)kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 88,9 mlrd so'mni (117,6%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 88,0 mlrd so'mni tashkil etdi (117,5 %).

2024-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 88,9 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (34,3 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 34,3 mlrd so'm  38,6 %	Non va non mahsulotlari 7,2 mlrd so'm  8,1 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 15,2 mlrd so'm  17,1 %
Tovuq go'shti 2,4 mlrd so'm  2,7 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 4,8 mlrd so'm  5,4 %	Tuxum 3,9 mlrd so'm  4,4 %
Ziravorlar 5,9 mlrd so'm  6,7 %	Sut va sut mahsulotlari 5,6 mlrd so'm  6,3 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 0,9 mlrd so'm  1,0 %
Tuzlamalar 3,0 mlrd so'm  3,3 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 1,8 mlrd so'm  2,0%	Nooziq-ovqat tovarlar 3,9 mlrd. so'm 4,4 %

2025- yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 88,0 mlrd so'mni tashkil etdi. bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 72,6 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 14,0 mlrd so'mni, otlar – 1,0 mlrd so'mni, parrandalar – 0,4 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 41,0 mlrd so'm  46,6 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 15,5 mlrd so'm  17,6%	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 16,0 mlrd so'm  18,2 %
Qo'ylar 13,6 mlrd so'm  15,5 %	Otlar 1,0 mlrd so'm  1,1 %	Echkilar 0,3 mlrd so'm  0,4 %
Kurka, o'rdak, g'oz 0,2 mlrd so'm  0,2 %	Tovuqlar 0,2 mlrd so'm  0,3 %	Quyionlar 0,1 mlrd so'm  0,1 %
Qushlar 0,1 mlrd so'm  0,01%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 778 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 776 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	53,6	111,4
shaharlar		
Farg'ona	17,8	113,4
Qo'qon	2,7	119,4
Quvasoy	0,4	115,6
Marg'ilon	8,5	117,3
tumanlar		
Oltiariq	2,9	114,1
Qo'shtepa	2,0	113,0
Bag'dod	0,4	119,7
Buvayda	1,1	113,8
Beshariq	4,2	113,5
Quva	2,2	116,0
Uchko'prik	4,1	115,2
Rishton	1,3	112,6
So'x	0,5	123,8
Toshloq	0,7	115,2
O'zbekiston	0,4	124,3
Farg'ona	1,9	115,8
Dang'ara	0,6	124,9
Furqat	0,7	120,4
Yozyovon	1,2	111,2

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 53,6 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	357,7	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	95,1	26,6
Qo'qon	175,2	49,0
Quvasoy	1,0	0,3
Marg'ilon	23,0	6,4
Tumanlar		
Oltiariq	2,5	0,7
Qo'shtepa	0,4	0,1
Bag'dod	0,9	0,2
Buvayda	1,8	0,5
Beshariq	0,5	0,1
Quva	1,3	0,4
Uchko'priq	9,1	2,5
Rishton	1,0	0,3
So'x	1,0	0,3
Toshloq	6,4	1,8
O'zbekiston	1,5	0,4
Farg'ona	0,5	0,1
Dang'ara	14,1	4,0
Furqat	2,0	0,6
Yozyovon	20,3	5,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (175,2 mlrd so'm), Farg'ona (95,2 mlrd so'm) va Marg'ilon (23,0 mlrd so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2025- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 357,7 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 146,4 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 101,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 211,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 1,9 m ko'paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 663,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,2 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining 1 604,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,5 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

	Hajmi, mlrd so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	1 663,3	112,2
Shaharlar		
Farg'ona	276,1	110,0
Qo'qon	309,9	109,6
Quvasoy	53,3	114,4
Marg'ilon	341,4	109,6
Tumanlar		
Oltiariq	24,3	112,2
Qo'shtepa	12,2	102,0
Bag'dod	10,0	99,3
Buvayda	46,1	109,4
Beshariq	19,4	109,8
Quva	8,3	113,5
Uchko'prik	123,1	164,4
Rishton	6,3	110,7
So'x	1,7	89,9
Toshloq	111,6	107,8
O'zbekiston	23,3	109,0
Farg'ona	37,5	103,6
Dang'ara	36,7	107,7
Furqat	9,5	105,8
Yozyovon	5,9	100,7

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 955 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 18 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 937 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Uchko'prik t (164,4 %), Quvasoy sh (114,4 %) va Quva (113,5 %) tumanida kuzatildi.